

RIVOYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**Otaboyeva Dilnoza***Urganch Ranch texnologiya universiteti o'qituvchisi***Yusupova Shahnoza Oybek qizi***Urganch Ranch texnologiya universiteti 2-kurs talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada rivoyatlarning o`ziga xos xususiyatlari, obrazlar tarkibi, tarixiy ahamiyati, mavzu mundarijasi, tabiat tasviri kabi masalalar tahlil qilindi. Shuningdek rivoyatlarning turlari, ulardagi tarixiy shaxslarning qahramonliklari, joy nomlari bilan bog`liq rivoyatlar tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: folklor, toponomik rivoyatlar, tarixiy shaxslar bilan bog`liq rivoyerlar, rivoyatlarni o`ziga xosligi, adabiy meros.

Абстрактный. В данной статье были проанализированы такие вопросы, как характеристики повествований, композиция образов, историческое значение, содержание сюжета, описание природы. Также были проанализированы типы нарративов, героизм исторических личностей, нарративы, связанные с топонимами.

Ключевые слова: фольклор, топономические повествования, повествования об исторических личностях, своеобразие повествований, литературное наследие.

Abstract. In this article, issues such as characteristics of narratives, composition of images, historical significance, content of the subject, description of nature were analyzed. Also, the types of narratives, the heroism of historical figures, and the narratives related to place names were analyzed.

Key words: folklore, toponomic narratives, narratives related to historical figures, originality of narratives, literary heritage.

"Rivoyat" arabcha so'zdan olingan bo'lib "hikoya qilmoq", voqe va hodisalarni, inson faoliyatini, ba'zan uydirmalar vositasida, ba'zan esa real tasvirlanadigan og'zaki hikoya hisoblanadi. Rivoyatlar afsonalardan hayot haqiqatiga anchayin yaqinligi bilan farq qiladi. Agar afsonalar ajdodlarimiz tomonidan o'ylab topilgan to'qima hikoyalardan iborat bo'lsa, rivoyatlar hayotda ro'y bergan qandaydir tarixiy voqealarga asoslanadi. Rivoyatlar, asosan, tarixiy voqeа ishtirokchisi tomonidan yozib qoldiriladi yokida og'izda aytib ajdoddan avlodga meros sifatida bizgacha yetib keladi. Rivoyatlar ham afsonalar kabi mazmun -mohiyatiga ko'ra 2 ta turlarga bo'linadi: 1. Tarixiy shaxslar hayoti; 2.O'rinn-joy nomlari bilan bog'liq rivoyatlar tashkil etadi. Tarixiy rivoyatlarga asosan, yurtimiz ozodligi uchun jonini qurbon qilib kurashgan mard farzandlar jasorati va o'zining manfaati yo'lida butun xalqini dushman qo'liga tutib

bergan xoinlarning xiyonati hikoya qilinadi. Xususan, To'maris, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Shiroq, Amir Temur kabilarda haqiqiy insonlar hayoti aks ettirgan. Bu ulug' sarkardalarimiz, ajdodlarimiz o'z vatanini tashqi va ichki tomondan dushmanlaridan himoya qilishda biz uchun haqiqiy ibrat bo'la oldilar. Vatanga, xalqqa dushman bo'lgan, o'z darvozasini dushmanga ochib bergan razil shaxslar Dalvarzin, Guldursin haqidagi rivoyatlarda fosh etiladi.

Shuningdek, rivoyatlarni tahlil qilish badiiy adabiyotdag'i o'rnnini o'rganish dolzarblik kasb etadi. Rivoyatlarning o'ziga xosligi, obrazlar tarkibi hamda rivoyatlarning tarix va din bilan munosabati rivoyatlarning o'ziga xos epik belgilari, mifologiyaga munosabati va mavzu munosabatlari, tabiat, tavsifi kabi masalalarga oid V.Ya.Propp, V.N.Putilov, V.K.Smirnova, E.V.Pomeranseva, B.Sarimsoqov, O.Safarov, S.Umarov, M.Jo'rayev kabi olimlarning izlanishlari mavjud.

O'zbek xalqi orasida Beruniy, Ibn Sino, Marg'iloni, Imom Buxoriy, Ulug'bek, Navoiy kabi buyuk allomalar haqidagi yaratilgan rivoyatlar ham hali hamon saqlanib kelmoqda.

Shulardan Ibn Sino bilan bog`liq rivoyatga nazar tashlasak. "Ibn Sino har kuni betoblarni qabul qilar ekan. Ammo navbat bir yigitga yetib kelganda uni chetlab o'tar ekan. Kunlardan bir kun yigitning onasi u yotgan to'shak yoniga bir kosa qatiq qo'yib, o'z yumushlari bilan band bo'libdi. Yigit kosadagi qatiqqa tikilib yotsa, shipdan bir ilon tushib qatiqqa zaharini solibdi. Jonidan to'ygan yigit jon-jahdi bilan ichib yuboribdi. Ammo biroz o'tmay o'zini tuzuk sezsa boshlabdi. Soat o'tgan sayin u sog'ayibdi. Ertasiga ancha o'ziga kelib, yana Ibn Sinoning qabuliga boribdi. Bu safar ham tabib uni chetlab o'tibdi. Ajablangan yigit unga e'tiroz bildiribdi. Shunda alloma:

-Siz kecha va avvallari kelganingizda dardingizga davo yo'q edi. Shuning uchun sizni ko'rmagandim. Chunki men sizga qatiqni to'shak yoniga qo'yish, unga ilon zahar solishi, bu qatiqni siz ichishingiz kerakligini ayta olmas edim-da. Ammo taqdir sizga bu imkoniyatni yaratdi. Endi sizga tabibning keraki yo'q. Siz mutlaqo sog'siz. Shuning uchun sizni chetlab o'tdim," -debd[i].[2.53-54]

Bu rivoyatda tabibimiz naqadar mohir, zehnli va dono tabib ekanligi o'z ifodasini topgan. Rivoyatlar matnini tahlil qilish ularning hajmi katta bo'lmasligini tasdiqlaydi. Ularda voqealar bayoni bir, ikki lavhadan iborat xolos.

Endi o'r'in-joy bilan bog'liq rivoyatlar bilan tanishsak. Men sizlarga shulardan bittasini aytib o'tmoqchiman. Rivoyatga diqqat qiling. Buxoro bilan Navoiy o'rtasida katta Malik Cho'li degan joy bor. Nega aynan Malik Cho'li deyiladi? Bilmasangiz, diqqat bilan eshititing: "Qadim zamonlarda shahri a'zim Buxoroning xoni vaqt-i-vaqt bilan qishloqlarimda nima gap ekan, bir bilay, deb o'ziga qarashli qishloqlarni kezar ekan. U qishloqdan bu qishloqqa o'tib, yomonlarning jazosini berar ekan, yaxshilarni esa mukofotlarkan. Kunlardan bir kuni bir qancha qishloqlarni, bekliklarni aylanib juda charchabdi. Bir joyga kelganda, shu joyga chodir tikinglar, dam olamiz,

charchadim, debdi. Chodirlar tikilibdi. Amirga xos chodirga xonning o'zi qo'nibdi. Amaldor-u ulamolarga ham chodirlar tikilib, hamma joylashib, dam ola boshlabdi. Xonning bir shotiri, ya'ni jilovdori bor ekan. Uning oti Malik ekan. U xon uxlaganda yonida, yurganda otning jilovida bo'larkan. Xon yangi tikilgan chodirda dam olib o'tirib, uyquga ketibdi. Malik bo'lsa yonida chivin qo'rib o'tiribdi. Bir payt Malik xonning chivinini qo'rib o'tirsa, bir chivin uning burnidan chiqibdi-da, asal to'la kosa ketidan aylanib-aylanib bir teshikka kirib ketibdi. Malikvoy qiziqsinab, "Yana nima bo'lakin?" - deb diqqat bilan qarab turaveribdi. Bir pastdan keyin boyagi chivin yana xonning burnidan chiqib, asal to'la kosa qirg'og'ida yurib-yurib, haligi teshikning og'ziga borib, unga kirib ketibdi. Malikvoy bu voqeani ko'rib yana hayron bo'libdi. Birozdan so'ng chivin haligi qilig'ini yana takrorlabdi, ya'ni amirning burnidan chiqib, asal to'la kosaning qirg'og'idan yurib-yurib, teshikka kirib chiqibdi-da, yana o'sha asal to'la kosa ustidan yurib xonning burniga kirib ketibdi. Malikvoy "Bu nima sir bo'ldi?" – deb beshbattar hayron bo'libdi. Chivinni o'ldiray desa, hadeb xonning burnidan chiqib teshikka kirib, teshikdan chiqib burniga kiraveribdi. Malikvoy nima qilishini bilmay, boshi qotib turgan ekan, xon uyg'onib qolibdi... Ovqat ustida xon tush ko'rganini aytibdi.

- Tushimda, - debdi xon, - saltanatimni tashlab, uzoq cho'lga chiqib ketibman. Cho'lda yura-yura bir daryoyi a'zimga yetibman. Daryoga uzundan uzun ko'prik solingan emish. Shu ko'prikdan o'tibmanda, bir g'orga kiribman. G'orning ichida ikki xum tilla bor emish. Tillolarni olay desam, atrofimni ilon-u chayonlar o'rab olganmish, tillolarni olishga qo'ymasmish. Shunday qilib tillolarni olmay g'ordan chiqdimda, cho'lda yura-yura shaharga yetib keldim. Xon so'zini tugatgach, o'tirganlardan "Tushimning ta'birini qanday tushuntirasiz?" deb so'rabdi. Xon odamlaridan birovi bunday debdi, boshqasi unday debdi-yu, anig'ini aytolmabdi. Malikvoy chivin bilan bo'lgan voqeani eslab: "Bunda bir sir bor" – debdi-yu, yana hech nima demabdi. O'zini kasalga solibdi. Xon:

- Bo'masa sen shu chodirda qol-da, tuzalgach, bizga yetib olarsan, - debdi. Hamma kelgan tomoniga jo'nab ketibdi. Malikvoy darrov qo'liga ketmon olib, chivin kirib-chiqliqan teshikni kovlay boshlabdi. Haqiqatdan ham teshikning tagida ikki xum tilla bor ekan. Ilon, chayonlarni haydab yuborib tillolarni olibdi. Hamma yoqqa jar soldirib, eng yaxshi ustalarini oldirib kelib, shu yerda shahar qurdiribdi. Suvlari chiqarib, cho'lni bo'ston qilibdi. Shu-shu cho'lni "Cho'li Malik" deb ataydigan bo'lishibdi. Shu cho'l hozir ham bor." [3.54-55]

Bu rivoyat Malik cho'li joy nomi ya'ni geografik nomini sharhlash niyatida yaratilgan rivoyat hisoblanadi. Shunday qilib, geografik, toponimik rivoyatlar ishonchli voqealar asosida yozilgan. Bu rivoyat aytganimizdek Buxoro va Navoiy oralig'ida katta Malik cho'li yastanib yotadi. Uning bir qismini O'rtacho'l, tog' yon bag'rini esa Qarnob cho'li ham deb yuritar ekanlar. Malik Cho'li yelkasidan esa Zarafshon oqadi. Malikning

qoq o'rtasi-avtomobil yo'li yoqasida Malik darvozasi va yopiq hovuz xarobalari saqlangan. Malik rivoyatini bizga Qizil tepaning Kenagas qishlog'ida yashovchi mashhur Saidmurod Panoh baxshining o'g'li sakson yoshli usta Berdi ota aytib berdi. Shunday ekan Malik cho'li o'ziningadolat va dono qarorlari bilan tanilgan hukmdor bo'lib, uning hukmronligi ostida xalqi tinchlik va farovonlikda yashaydi. Rivoyatda uning xalqiga bo'lgan mehr va muhabbat,adolatsizlikka qarshi kurashi va dono qarorlari orqali xalqi uchun qilgan xizmatlari tasvirlanadi. Shunday ekan Xiva, O'sh va Andijon shaharlari haqidagi rivoyatlarni ham geografik va toponimik rivoyatlar qatoriga kiritishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki rivoyatlarning badiiy adabiyotda o'ziga xos o'ringa ega. Xalq og'zaki adabiyotining bir turi rivoyat bo'lib, unda insonlar hayotidagi qiziqarli va o'zgacha voqealar tasvirlanadi. Rivoyatlar ko'pincha fantastik, ma'naviy yoki tarixiy xususiyatlarga ega bo'lib, unda yaxshi va yomon,adolat va zulm, muhabbat va qarshilik kabi qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi kurash aks ettiriladi. Rivoyatlarda, asosan, axloqiy saboqlar berish, ijtimoiy muammolarni yoritish va insonning ichki dunyosini ochib berish maqsad qilinadi. Bu asarlarning asosiy xususiyati — ularning o'quvchiga yoki tinglovchiga ijobiy yoki salbiy xulosa chiqarishga yordam berishi, ba'zan esa hayotdagi noxush hodisalar haqida o'ylashga undashi. Rivoyatlarda odatda, kutilmagan voqealar, o'rgatish maqsadida ishlatilgan qahramonlar va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlар mavjud. Bugungi kunda badiiy asarlarga nazar tashlaydigan bolsak ularda turli xil rivoyatlarni uchratamiz. bu kabi rivoyatlar asarning badiiy oziga xosligini ochishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, rivoyatlarning obrazlar tarkibi hamda rivoyatlarning tarix va din bilan munosabati rivoyatlarning o'ziga xos epik belgilari, mifologiyaga munosabati va mavzu munosabatlari, tabiat, tavsifi kabi masalalarga oid qarashlar rivoyatlarda o'z aksini topadi. Shu sababli, rivoyatlar nafaqat o'quvchilarni qiziqtiradigan, balki ularni tarbiyalovchi va ijtimoiy xulq-atvorni shakllantiruvchi asar hisoblanadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar, 2 jild 1968.
2. Hojimurodov M. O'zbek rivoyatlarining badiiy xususiyatlari, Toshkent:
3. Yangi asr avlodi, 2002, 57-bet.
4. O.Madayev, T.Sobitova Xalq og'zaki poetik ijodi "Sharq" nashriyoti-Matbaa Aksiyadorlik Kompaniyasi Bosh Nashriyoti Toshkent-2020.53-54 b.
5. O.Madayev, T.Sobitova Xalq og'zaki poetik ijodi "Sharq" nashriyoti-Matbaa Aksiyadorlik Kompaniyasi Bosh Nashriyoti Toshkent-2020.54-55 b
6. Sodiqov N. Xalq ijodi va uning janrlari, Toshkent: Universitet nashriyoti,34-bet.